

SIFAT SO'Z TURKUMINING QIYOSIY TAHLILI

Po'latova Mashhura Bahodir qizi

Alfraganus univeriteti

“Sharq filologiyasi “ fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi

e-mail.mashhurapolatova9@gmail.com

N.Mamajonova

Ilmiy rahbar

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15770422>

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola o'zbek tilida sifat so'z turkumining o'rganilish jihatlari yuzasidan bir qancha olimlarimizning sifat so'z turkumi doirasidagi fikr va mulohazalari tahliliga bag'ishlanadi.

COMPRAVITE ANALYSIS OF A CLASSUM QUALITY

Annotation: About the views and opinions of several schoolars on the study of the adjective word class in the uzbek language.

Kalit so'zlar: sifat, asliy va nisbiy sifat, tub sifat, yasama sifat, qo'shma, sodda, juft, takror sifat, xususiyat bildiruvchi sifat, holat bildiruvchi sifat.

Otga bog'lanib, uning belgisini bildiradigan va "qanday?", "qanaqa?" so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlarga sifat deyiladi. Sifatlar tarkibiga ko'ra tub va yasama sifatlar bo'linadi. Tarkibida so'z yasovchi qo'shimchalar bo'lmagan sifatlar tub sifatlar, asos va so'z yasovchi qismdan iborat bo'lgan sifatlar yasama sifatlar hisoblanadi. Yasama sifatlar asosga qo'shimchalar qo'shish yoki so'z qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi. -li, -ser, -dor, -siz, no-, -chan, -ma, -iy(-viy) kabi qo'shimchalar sifat yasovchi qo'shimchalar hisoblanadi. -li, -dor, ba-, -ser, -mand qo'shimchalari asosda ifodalangan belgiga egalikni bildiradi. Bu qo'shimchalar (-mand qo'shimchasidan tashqari) asosda ifodalangan belgiga ega emaslikni bildiruvchi no-, -siz, be- qo'shimchalari bilan zid ma'nolidir. -gi(-ki, -qi,) qo'shimchasi payt va o'rin bildiruvchi otlarga qo'shilib, payt va o'ringa xos belgini, -simon qo'shimchasi o'xshashlik belgisini, -(v)iy qo'shimchasi xoslik belgisini bildiruvchi sifatlar yasaydi. Sifatlar tuzilishiga ko'ra: sodda, qo'shma, juft, takroriy bo'ladi. Bir asosdan iborat bo'lgan sifatlar sodda sifatlar sanaladi. Ikki va undan ortiq asosdan tarkib topgan sifatlar qo'shma sifatlar deyiladi. Qo'shma sifatlar, asosan, qo'shib yoziladi. O'zaro yaqin va zid ma'noli ikki asosning juft kelishidan hosil bo'lgan sifat juf sifat hisoblanadi. Juft sifat qismlari chiziqcha bilan yoziladi. Juft sifat qismlari -u, -yu vositasida bog'lansa, ular ajratib yoziladi: yakka-yu yagona. Bir asosning aynan takrorlanishidan hosil bo'lgan sifatlar takroriy sifat sanaladi. Takroriy sifatlar belgini ta'kidlab, kuchaytirib ifodalaydi. Takroriy sifat qismlari chiziqcha bilan ajratib yoziladi. Sifatning to'rta darajasi bor bular: 1) oddiy daraja, 2) qiyosiy daraja, 3) orttirma daraja, 4) ozaytirma daraja. Belgining odatdagi me'yorda ekanligini bildiruvchi va boshqa darajalar uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi sifat shakli oddiy daraja shakli deyiladi. Belgining me'yordan ortiq ekanligini bildirgan sifat shakli orttirma daraja shakli deyiladi. Sifatning orttirma daraja shakli quyidagi yo'llar bilan hosil bo'ladi:

1) oddiy daraja shaklidagi sifat oldidan eng, g'oyat, juda, nihoyatda, bag'oyat so'zlari keltiriladi: juda qizil, g'oyat shirin.

2)oddiy daraja shaklidagi sifatning birinchi bo'g'ini tovush o'zgarishi bilan takrorlanadi: bus-butun,kap-katta,to'ppa-to'g'ri.

Belgining me'yordan biroz oz yoki ko'p ekanligini qiyosang ifodalaydigan sifat shakli qiyosiy daraja shakli deyiladi. Qiyosiy daraja shakli -roq qo'shimchasi yordamida yasaladi. Belgining me'yordan kam ekanligini bildiruvchi shakl sifatning ozaytirma daraja shakli hisoblanadi. Ozaytirma shakl sifatning oddiy daraja shakli oldiga sal, biroz, picha, xiyla, nima so'zlarini qo'shish oraliq hosil qilinadi.Rang-tus bildiruvchi ayrim sifatlardan -(l)mtir,-ish qo'shimchalari yordamida ham ozaytirma daraja shakli yasaladi.Sifatlar qanday belgini ifodalashiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi: 1)xususiyat sifatlari; 2)rang-tus sifatlari; 3)maza-ta'm sifatlari; 4)hajm-o'lchov sifatlari; 5)hid bildiruvchi sifatlar; 6)makon-zamon sifatlar.

Qalandar Sapayev sifat so'z turkumi bo'yicha quyidagi fikrlarni ilgari suradi: Predmetning belgisini bildiruvchi mustaqil so'zlar sifat deyiladi:masalan yaxshi yigit,kamtar qiz.Sifatlar belgini o'zichaa ayrim olingan holda bildirmasligini,balki borliqdagi u yoki bu narsa va hodisalarga tegishli holda anglatishini aytib o'tadi.Shuning uchun sifat,odatda,narsa va hodisalarning nomi bo'lmish otlarni aniqlab keladi:kuzgi shamol,aqlli bola,malla soch kabi.Sifat odatda otga bog'lanib keladi,uning biron belgisini aniqlashga xizmat qiladi.Ba'zan ot so'z ham hech qanday morfologik belgisiz sifatlovchi bo'lib keladi.Lekin belgi ma'nosini anglatib kelgan bunday ot tamoman sifat turkumiga o'tib ketmaydi,balki ot turkumi doirasida qoladi.Masalan:tosh yo'l,taxta ko'prik,oltin soat,atlas ko'ylak , kumush qoshiq kabi.O'zbek tilida sifat boshqa so'z turkumlaridan o'ziga xos ma'nosini,maxsus sifat yasovchi affikslar ha va shakl yasovchi affikslarga ega ekanligi bilan farqlanib turadi.Grammatik jihatdan narsa belgisini boshqa narsa belgisi bilan qiyoslab,darajalab ko'rsatish yoki narsa belgisini kuchaytirib va kamaytirib ko'rsatish xususiyatiga ega.Masalan:katta-kattaroq,eng katta,ko'k-ko'kroq,eng ko'k,ko'kimtir.Sifatlat ko'pincha sifatlovchi vazifasida keladi:Masalan:Ochil buva o'tkir,qora ko'zli,serqosh,chiroyli yigit bo'lgan.Bundan tashqari kesim,hol vazifasida ham keladi.Masalan:Xo'jalik madaniyatning,madaniyat xo'jalikning yana chiroyliroq,kuchliroq gullashiga sababchi bo'ladi.Sifat otlashib kelganda gapda ega,to'ldiruvchi va qaratiqchli aniqlovchi vazifasida keladi.Masalan: Yomonning yaxshisi bo'lguncha, yaxshining yomoni bo'l.Sifatlar anglatgan ma'nolatga ko'ra bir xil emas.Ba'zi sifatlar bevosita,to'g'ridan-to'g'ri narsa belgisini ko'rsatsa, ba'zilari esa belgi ma'nosini bir narsaning boshqa narsaga munosabatiga ko'ra anglatadi. Belgini bevosita anglatadigan sifatlarga asliy sifat deyiladi. Masalan:oq,qizil,sariq,pushti.

Belgini bir narsaning boshqa narsaga bo'lgan munosabatiga ko'ra anglatadigan sifatlarga nisbiy sifat deyiladi. Nisbiy sifat maxsus so'z yasovchi affiks vositasida boshqa so'z turkumlaridan yasaladi. Masalan:bilimli qiz,tonggi shabada , suvsiz yer.

Nisbiy sifatda yasash asosidan anglashilgan narsaga xoslanganlik, qiyoslash, o'xshatish, o'rin yoki paytgga nisbatlash kabi ma'nar ifodalanadi, sifat yasovchi affiks go'yo ikki narsa orasidagi munosabatlarning ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Masalan:kechagi kun,mevali daraxt,qadimgi tarix,harbiy unvon.

Nisbiy sifatlar ma'no jihatdan belgini:

- 1)narsaga nisbat berish bilan ifodalaydi:g'ayratli kishi,ilmiy ish kabi.
- 2)vaqtga nisbat berish bilan ifodalaydi:kuzgi shamol ,hozirgi zamon kabi.
- 3) o'ringa nisbat berish bilan ifodalaydi:Toshkentlik yigit,shaharlik talaba.

Sifatlar narsaning belgi- xususiyatini turli nuqtai nazardan anglatishi mumkin. Bu belgilar bevosita insonga yoki borliqdagi jonli va jonsiz narsalarga tegishli bo'lishi mumkin. Sifatlar shu xususiyatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- a) narsaning rangini, tusini bildiruvchi sifatlar: qizil, sariq, oq.
- b) narsa yoki shaxsning xususiyatini bildiruvchi sifatlar: kamtar, sho'x, tetik, xasis.
- v) narsaning shakl ko'rinishini, hajm-o'lchovini bildiruvchi sifatlar: novcha, oriqliq, egri, tor.
- g) narsa yoki shaxsning holatini bildiruvchi sifatlar: shod, xursand, go'zal, eski, quruq.
- e) narsaning vaqti va o'rni belgisini bildiruvchi sifatlar: qadimgi, bugungi, devoriy, avvalgi.
- j) narsaning hidini bildiruvchi sifatlar: xushbo'y, sassiq, qo'lansa
- z) narsaning vaznini bildiruvchi sifatlar: og'ir, yengil, zildek.

Sifatlar otga bog'lanib, narsaga xos belgini bildiradi. Ammo ba'zan fe'lga bog'lanib, harakatning belgisini bildiradi va gapda hol vazifasida keladi. Masalan: Bir narsani qadrlash uchun uni avval yaxshi bilish kerak.

R. Sayfullayeva boshqa so'z turkumi ham belgi ifodalaydi. Ammo sifat barqaror va turg'un belgi ifodalashi jihatidan ulardan ajralib turishini aytib o'tgan. Masalan: Gul qizil deganda turg'un belgi, Gul qizardi deganda esa o'zgaruvchi belgi namoyon bo'lgan. Sifat anglatgan belgi boshqa turkum anglatadigan belgidan xususiyati bilan farqlanadi. Masalan: qizg'ish – qizil – qip-qizil. Boshqa turkum anglatuvchi belgida esa bunday xususiyat yo'q. Shu asosda sifatning UGM sini "asosan predmetning, qisman harakatning belgisini bildirib, gapda asosan sifatlovchi aniqlovchi, ba'zan kesim, ayrim hollarda hol vazifasida kelish" ko'rinishida tiklash mumkin. Belgu tushunchasi o'z ichiga rang-tus, hajm-shakl, xarakter, vazn, maza kabini qamrab oladi. Belgining xususiyatiga ko'ra sifat ikkiga bo'linadi: asliy va nisbiy sifat. Asliy sifat predmetning turg'un, nisbatlanmaydigan va darajalanadigan belgisini ifodalaydi: qizil, katta, ko'p, oz

Nisbiy sifatlar belgini qandaydir bir predmet, belgi, miqdor, o'rin va harakatga nisbatan ifodalaydi: moddiy yordam, sinliq piyola. Nisbiy sifatda darajalanish, qiyoslanish bo'lmaydi. Lekin u daraja belgisiga ega bo'lgan ravishdan asosan predmet belgisini bildirishi bilan farqlanadi.

Darslik va qo'llanmalarda sifatning 9 ta LMG si ajratiladi:

- 1) Xususiyat bildiruvchi sifat.
- 2) Holat bildiruvchi sifat.
- 3) Shakl bildiruvchi sifat.
- 4) Rang-tus bildiruvchi sifat.
- 5) Maza-ta'm bildiruvchi sifat.
- 6) Hid bildiruvchi sifat.
- 7) O'lchov bildiruvchi sifat.
- 8) O'rin bildiruvchi sifat.
- 9) Payt bildiruvchi sifat.

Xususiyat bildiruvchi sifat narsa mavjudotning xarakter-xususiyatini ifodalashda ko'p qo'llanadi: yoqimtoy, badjahl, muloyim.

Holat bildiruvchi sifat narsa mavjudotning holat va vaziyatini turg'un belgi sifatida ifodalaydi. Holat bildiruvchi sifat o'z o'rnida hana ichki guruhlariga bo'linadi:

- 1) tibiiy holat bildiruvchi sifat: go'zal, bukri, cho'loq;
- 2) jismoniy holat bildiruvchi sifat: bardam, baquvvat, yosh;
- 3) ruhiy holat bildiruvchi sifat: xafa, ma'yus, shod;

- 4) iqtisodiy holat bildiruvchi sifat: boy, badavlat, nochor;
- 5) harorat holatini bildiruvchi sifat: iliq, salqin, issiq;
- 6) tozalik holatini bildiruvchi sifat: kir, ozoda, musaffo;
- 7) eskilik, yangilik holatini bildiruvchi sifat: eski, ko'hna, juldur;
- 8) ho'l-quruqlik holatini bildiruvchi sifat: ho'l, nam, quruq;
- 9) tinch va notinch holatni bildiruvchi sifat: bezovta, jim, osuda;
- 10) etilganlik holatini bildiruvchi sifat: xom, puxta, pishiq;

Shakl bildiruvchi sifat narsa predmetning tashqi ko'rinishini ifodalaydi: novcha, yassi, uzunchoq.

Rang-tus bildiruvchi sifat: oq, qora.

Maza-ta'm bildiruvchi sifat: taxir, nordon.

Hid bildiruvchi sifat: xushbo'y, badbo'y.

O'lchov bildiruvchi sifat: keng, uzun, tor

O'rin bildiruvchi sifat: ichki, tashqi, qishloqi.

Payt-bildiruvchi sifat: kuzgi, chillaki, ertapishar.

Xulosa. Biz ushbu maqolamizda sifat so'z turkumi borasidagi ikki olimimizning turli xil qarashlarini ko'rib chiqdik. Bundan ko'rinadiki, Ra'no Sayfullayeva darslik va qo'llanmalardagi singari sifatni 9 ta LGM ga ajratib o'rgangan hamda sifatni barqaror va turg'un belgi ifodalashi jihatdan ulardan ajralib turishini aytib o'tgan. Qalandar Sapayev esa R. Sayfullayevadan farq qilgan holda sifat belgini o'zichaa ayrim olingan holda bildirmasligini, balki borliqdagi u yoki bu narsa hodisalarga tegishli holda anglatishini aytib o'tgan va nisbiy sifatlarni o'z navbatida 3 ta narsaga nisbat berib ifodalagan..

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, D. Nabiyeu "Ona tili 6 darslik" Toshkent 2017. 133-152-bet.
2. Q. Sapayev "Hozirgi o'zbek tili" o'quv qo'llanma Toshkent 2009 94-96-bet.
3. R. Sayfullayeva, Mengliyev B.R, Raupova L.R, Abuzalova M.Q, Yo'ldosheva D.N "Hozirgi o'zbek tili" Toshkent 2021 226-227-bet.